2021. (28-37) XP

O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

# YOSHLAR OVOZI

Молодежь Узбекистана

№ 28 (16434)
2021-YIL
11-AVGUST,
CHORSHANBA

WWW.YOSHLAROVOZI.UZ · YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU · @YOSHLAROVOZIUZ · @YOSHLAROVOZI

IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY, ADABIY-BADIIY GAZETA

## VATANNI ULUG'LAGANNI XALQ ARDOQLAYDI

*Poytaxt aeroporti. Soat millari 20:40 ni ko'rsatmoqda. Yaponiyaning Tokio shahrida o'tgan XXXII yozgi Olimpiya o'yinlarida jonajon Vatanimiz – O'zbekistonning shon-u shuhratini olamga tarannum etgan sportchilarimiz mamlakatimizga qaytib kelishmoqda.*

*Shu munosabat bilan bu yerga jam bo'lgan keng jamoatchilik vakillari, sportchilar, olimpiyachilarning ota-onalari, yaqinlari, jurnalistlar, sportimiz faxriylari, barcha-barchaning ko'nglida olam-olam zavq-u hayajon.*



▶ 12









*O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligiga*

## YOSHLAR UCHUN MUNOSIB SHART-SHAROIT YARATISH – ASOSIY VAZIFAMIZ!



*Yoshlarga oid davlat siyosati – davlatning demokratik taraqqiyot yo'lida yoshlarni muhim strategik kuch sifatida tan olishi, zamonaviy dunyoda yoshlarning ehtiyojlari, ularning mavjud demokratik muhitga to'g'ri moslashuviga yo'naltirilgan qonunchilik va ijro etish xususiyatining yig'indisi hamda o'zining yoshlarga nisbatan boshqaruv va ijtimoiy funksiyalarini demokratik siyosiy tizim, xalqaro yoxud milliy huquq normalari talabi darajasida to'liq bajarishidir. Yosh avlod vakillarining manfaatini, boshqa ko'pchilik qatlamlar vakillarining manfaatiga qarshi qo'ymasdan, umummilliy manfaat bilan uyg'unlashtirish – yoshlar siyosatining asosiy vazifasidir.*

Davomi 8-sahifada.

**ISLOHOTLAR AMALDA**

## IMKONIYATLAR DAFTARI

*Yoshlar — ertangi kun taqdiri va taraqqiyotini belgilaydigan asosiy kuch. Demak, ularning hayotda o'z o'rnini topishi, puxta bilim va kasb-hunar egallashi, umuman, har tomonlama intellektual salohiyatli qilib voyaga yetkazish doim eng dolzarb vazifa hisoblanadi.*

Davomi 2-sahifada.



*Xo'sh, bu borada mamlakatimizda qanday ishlar amalga oshirilmoqda? Vazirlik va idoralar, keng jamoatchilik zimmasidagi ushbu ulkan mas'uliyatni qay darajada uddalayapti? Yoshlar davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan e'tibordan rozimi?*



# IMKONIYATLAR DAFTARI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

*Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan olib borilayotgan islohotlarning bosh mezoni yoshlar masalasi, ularning hayoti bilan bevosita bog'liq, desak, ayni haqiqat.*

*Bugungi kunda jamiyatning ushbu faol qatlamini qo'llab-quvvatlash, ayniqsa, uyushmagan yoshlar uchun munosib sharoit yaratish, ularni ilmga, kasb-hunarga yo'naltirish, bandligini ta'minlash, tashabbuslarini rag'batlantirish, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishlari uchun ko'maklashishga alohida e'tibor qaratilyapti.*

*Eng muhimi, davlatimiz rahbari ilgari surgan g'oyalar asosida hayotga tatbiq etilgan mutlaqo yangi tizim ushbu yo'nalishdagi ishlarni yuqori bosqichga olib chiqdi.*

*Gap shundaki, hozirda har bir mahalla kesimida shakllantirilgan "Yoshlar daftari" yoshlar hayotiga yangicha mazmun olib kirmoqda. Mazkur tizim dastlab Bektemir hamda Oqqo'rg'on tumanlarida tajriba tariqasida amalga oshirilgan bo'lsa, endilikda respublikamizning barcha hududida uyma-uy yurish orqali ko'makka muhtoj ishsiz yoshlar ro'yxati tuzilib, shu asosda ish tashkil etilayotir.*

*Bu yoshlarga yaratilgan ulkan imkoniyat degani. Navbatdagi muhim masala shundaki, taqdim etilayotgan imkoniyatlardan yoshlar to'g'ri foydalana olyaptimi? Zero, har bir yoshning kelajagi o'zining mehnati va harakatiga ham bog'liq, albatta.*

*Biz suhbatlashgan quyidagi yoshlar "Yoshlar daftari" tufayli hayotda o'z yo'lini topib, ishiga unum olib kirolgan faollardir.*

## Yangi tizim hayotimda tub burilish yasadi

**Shohruhmirzo HUSANBOYEV**
*(Namangan viloyati, Uychi tumani):*



— Bir necha yil oldin kollejni tugatib, ish topolmay Rossiyaga ketgan edim. U yerda ham oson bo'lmadi. Har kuni ham ish bo'lavermasdi. Qishning izg'irin kunlarida tizza bo'yi qor kechib, ish izlagan kunlarim bo'lgan.

U yerdan qaytib kelgach, meni "Yoshlar daftari"ga ro'yxatga kiritishdi. Mana shu tizim mening hayotimda tub burilish yasadi. Dastlab menga 20 sotix yer maydoni ajratib berildi.

Birinchi ekinga kungaboqar ekib, 4 million so'm daromad qildim. Endi hosildan bo'shagan joyga ikkinchisini, ya'ni mosh ekib, 6 million daromad olishni mo'ljallayapman.

Oilam bag'rida, ular bilan birgalikda yaxshi daromad topishga nima yetsin?! "Yoshlar daftari" imkoniyatlar, imtiyoz-ushijoat beradigan tizim ekan. Buning uchun barcha tashkilotchilarga rahmat aytaman.

## Daromadimni chamalab ko'ravering...

**Xurmatbek IBRAGIMOV**
*(Xorazm viloyati, Urganch tumani):*



— Bugun yurtimizda istiqomat qilayotgan hech bir yosh davlatimiz e'tiboridan chetda emas. Biz yoshlarga shunday imkoniyatlar yaratib berilmoqdaki, undan foydalanmaslikni — xiyonat, deb bilaman.

O'zim Urganch tumanidagi "Turkmanlar" mahalla fuqarolar yig'inida istiqomat qilaman. "Yoshlar daftari"ga ro'yxatga kiritilganim sabab, menga "Har bir yoshga — bir gektar" loyihasi doirasida yer ajratildi. Ayni vaqtga kelib, ekkan hosilimning yarmidan 15 million so'm atrofida daromad olishga ulgurdim. Hali bu boradagi ishlarni toki qor tushguncha, undan keyin ham davom ettirsam, qo'shimcha daromadimni chamalab ko'ravering.

Aytmoqchimanki, yaxshi yashash har bir yoshning o'z mehnati va harakatiga bog'liq. Albatta, halol mehnatning samarasi bo'ladi. Zero, "Mehnat bilan yer ko'karar, duo bilan — el", deydi xalqimiz.

## Oyiga 12 — 15 milliongacha pul topyapmiz

**Xudoyberdi MAJIDOV**
*(Jizzax viloyati, G'allaorol tumani):*



— Bilasizmi, "Yoshlar daftari" men kabi ko'plab g'allaorollik yoshlar hayotiga tub o'zgarishlar olib kirmoqda. Bu haqida hikoya qiladigan bo'lsam, misollar ko'p.

O'zim mana shu yangi tizim asosida Savdo-sanoat palatasi ko'magida bepul kasb-hunar o'rgandim. Buning uchun bizga malakali mutaxassislar jalb etildi. O'quv kursini tamomlaganimdan so'ng sertifikatga ega bo'ldim. Demak, endi qandaydir foydali mehnat bilan shug'ullansam bo'ladi, degan ishonch paydo bo'ldi.

Qarangki, sertifikat kreditni muammosiz olishimda qo'l keldi. Menga 50 million so'm kredit ajratildi. 25 millionga zarur uskunalar xarid qildim. Qolganini xomashyolar xaridiga sarfladim.

Birinchi daromadimni yana tadbirkorlik rivojiga yo'naltirdim. Hozirgi kunda temir darvoza, temir karovat kabi mahsulot ishlab chiqarish faoliyati to'liq yo'lga qo'yildi. Yonimga ikki nafar tengdoshimni ishga oldim. Daromadimiz ham yaxshi: oyiga 12 — 15 milliongacha. Asosiysi, avvalo, o'zim va o'zim kabi yoshlarni ham ish bilan ta'minlay olayotganimdan xursandman. "Yoshlar daftari"ning samarasi ham shunda bo'lsa kerak.

## Sarmoyalar yoshlar kelajagi uchun sarflanyapti

**Usmon NURULLAYEV**
*(Qoraqalpog'iston Respublikasi, Ellikqal'a tumani):*



— Bugungi kunda Ellikqal'a tumani bo'yicha 160 nafar yoshga 317 mln. so'm subsidiyalar ajratilgan. Bu raqam ayni paytgacha yana-da ortganiga ham shubha qilmayman. Sababi qancha sarmoya bo'lsa, yoshlar kelajagi uchun sarflanyapti.

"Sharq yulduzi" ovul fuqarolar yig'inida "Yoshlar daftari"ga kiritilganimda ishsiz edim. Biroz vaqt o'tgach, menga Yoshlar ishlari agentligi ko'magida "Yoshlar daftari" jamg'armasi hisobidan subsidiya asosida motokul'tivator olib berildi. Bu mening oilamga yetarlicha daromad olib kiryapti. Buni biz yoshlarga yaratib berilayotgan keng imkoniyatlar, deb qabul qilib, shunga yarasha mehnat qilishga ahd qildim.

## Mahsulotimning xaridori ko'p

**A'loxon OQILXONOV**
*(Toshkent viloyati, Zangiota tumani):*



— Uyimiz yonida mebel sexi joylashgan. Yoshligimdan o'sha sex ishlari bilan tanishib, shu sohada ishlashga qiziqib kelardim. Ilk faoliyatimni ham o'sha yerda boshlaganman. Sexda mebel ishlab chiqarishning sir-sinoatlarini, matras to'qishni o'rgandim.

Shu soha bilan shug'ullanib, o'z biznesimni yo'lga qo'yish maqsadida tijorat bankidan kredit olish bo'yicha murojaat qildim. "Yoshlar daftari"ga kiritilganim uchun bank tomonidan 33 mln. so'm miqdorda kredit ajratildi. Barcha mablag'ni zarur uskuna va xomashyolar sotib olishga sarfladim. Bugun men ishlab chiqarayotgan matraslarning xaridori ko'p. Endi o'z yo'limni topganimga ishonch hosil qilyapman.

* * *

Yuqoridagi fikrlardan bilish mumkinki, "Yoshlar daftari" chin ma'noda, yoshlar hayotida, ularning bandligini ta'minlashda muhim o'rin tutmoqda.

Tahlillarga ko'ra, mamlakatimiz bo'yicha 648 ming nafar ishsiz yosh "Yoshlar daftari"ga kiritilgan bo'lsa, shundan birinchi chorakda 283 ming nafarining bandligi ta'minlangan. Xususan, 175 ming nafar yoshga 45 ming gektar yer maydoni ajratilgan.

Aytish joizki, davlatimiz rahbari raisligida shu yilning 13-aprel kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash borasidagi imkoniyatlarni yanada kengaytirish hamda bandligini ta'minlash bo'yicha samarali bo'lgan yangi tizim joriy etish bo'yicha aniq vazifalarni bergan edi.

Bu xalqqa ham, tashkilotlarga ham ma'qul bo'ladigan bir qancha imtiyozlarni nazarda tutadi. Yoshlarni ishga qabul qilgan korxona va kompaniyalarga ushbu xodimlar uchun to'langan ijtimoiy soliqni qaytarib berish, "Yoshlar daftari"ga kirgan 5 nafardan ortiq ishsiz yosh bandligini ta'minlagan tadbirkorlarga davlat mulki ijarasi uchun 50 foizgacha imtiyoz taqdim etilishi, shu bilan birga, xodimlarining kamida 70 foizi "Yoshlar daftari"ga kirgan yosh tadbirkorlarga davlat mulki auksionsiz berish hamda ulardan 5 yil davomida ijara haqi undirmaslik kabi imkoniyatlar shular jumlasidandir.

Bu hali hammasi emas. Yoshlar bandligini ta'minlashdagi yana bir muhim yo'nalish — qishloq xo'jaligi sohasida bugungi kunda respublikamiz bo'yicha 21 ta tumanda 2 mingdan 4,5 ming nafargacha bo'lgan yoshlarga dehqonchilik faoliyati uchun yer ajratilgan.

Davlatimiz rahbari yer olgan yoshlar agrotexnik tadbirlarni bajarib, daromad olishni boshlagunicha fermer hamda klasterlar amaliy yordam ko'rsatishi muhimligini ta'kidlagan edi. Bu sohada ham aholini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga urug'lik va ko'chatlar xaridi uchun 2 million so'mgacha subsidiya berish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yoshlar — ertangi kun egalari. Shunday ekan, ularning puxta bilim olishi, kasb-hunar egallashi, tadbirkorlik faoliyatini boshlashi va boshqa barcha ezgu maqsad hamda intilishlari uchun bugunning o'zidayoq zarur sharoitni yaratib berish zarur. Zero, kechiktirilgan har qanday ish ertaga qator muammolarni keltirib chiqarmasligiga hech kimda kafolat yo'q.

**Iqbol PARDAYEVA**

TOSHOYNA



# “SAID OTALIQ“ QACHON RO‘SHNOLIK KO‘RADI?..

*Ona diyorimiz o‘zining qadimiy va boy tarixi, milliy an’analari bilan dunyo tamadduni taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan, desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Ularni ko‘z qorachig‘idek asrash va avlodlarga meros qoldirish barchamizning burchimiz va vazifamizdir. Biroq ayrim qadimiy inshoot va osori atiqalarimiz e’tiborsizlik va loqaydligimiz tufayli nurab borayotgani ham sir emas.*

Denov tumanidagi “Said otaliq” madrasasi XVI asr bilan tengdosh. Biroq u, ayni paytda, qarovsiz ahvolga kelib qolgan. Madrasa bir muddat masjid vazifasini, sobiq Ittifoq davrida esa qamoqxona vazifasini bajargan. Madrasa yaqinida yoyma dehqon bozori mavjud bo‘lib, imoratning birinchi qavatdagi hujralari shu yerda savdo-sotiq qiladigan mahalliy aholi uchun omborxona vazifasini o‘taydi.

Ushbu joylarni suratga olish jarayonida jurnalistman deyishimga qaramay tijoratchilar qarshiligiga uchradim. Ular meni madrasa ichiga kiritishmadi, faqat darvozasidan bosh suqib, qaray oldim, xolos. Bu yerlik aholi aytayotgan “qurilish”dan dom-darak yo‘q, faqat qiyshayib qolgan eshiklar va peshtoqi zo‘rg‘a turgan tomni ko‘rish mumkin. Burchak qismidagi minoralariga yomg‘ir mavsumida 0.7 — 1.5 metrgacha namlik ko‘tariladi. Quruq mavsum boshlanishi bilan ular quriydi va cho‘ka boshlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2020-2022-yillarda Surxondaryo viloyatining Denov tumani va uning kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida Qurilish vazirligi, Madaniyat vazirligi, Surxondaryo viloyati hokimligi bilan birgalikda ikki oy muddatda “Said otaliq” madrasasini ta’mirlash-tiklash bo‘yicha loyiha hujjatlari ishlab chiqilishi, Surxondaryo viloyati hokimligi majmua atrofida yerosti suv sathini pasaytirish uchun zarur mablag‘larni 2020-yilda mahalliy byudjet hisobidan ajratishi, Moliya vazirligi majmuani ta’mirlash-tiklash uchun zarur bo‘lgan mablag‘larni 2020-2021-yillarda respublika byudjetidan ajratishi, Surxondaryo viloyati hokimligi Madaniyat vazirligi bilan birgalikda 2021-yil 1-noyabrga qadar majmuada ta’mirlash-tiklash ishlari to‘liq yakunlanishini ta’minlashi belgilangan. Mazkur loyiha O‘zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi tasarrufiga o‘tdi va unga 13 milliard so‘m miqdorida mablag‘ ajratilishi kerak edi. Lekin mablag‘ yo‘qligi uchun haliyam ishlarni boshlay olmayapmiz, — deydi vazirlik huzuridagi Madaniy meros agentligi Surxondaryo viloyat boshqarmasi boshlig‘i Shohista Hotamqulova. Qurilish pudratchisi sifatida “Ijod-ijod” xususiy korxonasi bilan shartnoma imzolangan. Pudratchilarning bizga ma’lum qilishicha, hozirga qadar obidada 1,5 milliard so‘mlik qurilish-tiklash ishlari amalga oshirilgan. Lekin boshqa mablag‘ yo‘qligi sababli ishlar to‘xtab qolgan. Turizm va sport vazirligi viloyat boshqarmasi xodimi Jo‘rabek To‘rayev bilan bog‘landik.

— Surxondaryo viloyati uchun 60 milliard so‘m ajratilishi ko‘zda tutilgan. Shundan 13 milliardi “Said otaliq” madrasasi uchun sarflanadi. Ayni paytda ushbu mablag‘larni yetkazib berish harakatidamiz — deydi Jo‘rabek To‘rayev.

Ma’lumotlarga qaraganda madrasadagi qurilish-tiklash ishlari shu yilning 1-noyabrigacha tugashi kerak. Noyabrgacha esa uch oy vaqt qoldi. Facebook ijtimoiy tarmog‘ida e’lon qilingan maqolaga Madaniy meros agentligi o‘z munosabatini bildirdi, biroq qo‘yilgan savollarga ya’ni obidaning Vazirlar mahkamasi qarorida ko‘rsatilgan muddatda nihoyasiga yetish-yetmasligi mavhumligicha qolmoqda. Kuzatamiz.

**Zayniddin NORQUVVATOV,**
**Zamon.uz muxbiri**

VAKSINA – YAGONA CHORA



# AHOLINING 53,2 FOIZI KORONAVIRUS INFEKSIYASIGA QARSHI EMLANISHGA TAYYOR

***“Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi COVID-19ga qarshi emlanish borasidagi jamoatchilik fikrining asosiy pozitsiyalari hamda fuqarolarning koronavirusga qarshi emlanishga tayyor emasligi sabablarini aniqlash va ularning yechimini topishga qaratilgan sotsiologik tadqiqot o‘tkazdi.***

So‘rovda respublikamizning barcha hududlarida yashovchi erkaklar, xotin-qizlar, yoshlar va katta yoshdagi fuqarolar ishtirok etdi.

Telefon orqali o‘tkazilgan so‘rovda mamlakat fuqarolarining 53,2 foizi koronavirus infeksiyasiga qarshi emlanishga tayyorligini tasdiqladi. Ular vaksina aholi o‘rtasida koronavirus infeksiyasi paydo bo‘lishi va tarqalishining oldini oluvchi profilaktik tadbirlar majmuasining muhim tarkibiy qismlaridan biri ekanligini anglab yetmoqda.

So‘ralganlarning uchdan bir qismidan ko‘prog‘i (36,5 foiz) emlanishdan bosh tortmoqda.

So‘rovning har o‘ninchi ishtirokchisi javob berishga qiynaldi, bu ularning hali COVID-19ga qarshi emlanish to‘g‘risida yakuniy qaror qabul qilmaganligidan dalolat beradi.

Telefon orqali o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, emlanishga tayyorlik mamlakatning erkak aholisi orasida 17,4 foizga yuqori bo‘lib, 60,7 foizni tashkil etadi. Ayollar orasida emlashga tayyorlar va COVID-19ga qarshi emlanishni istamaydiganlar foizi deyarli bir xil – 43,3 foizi emlashni istaydi, 45,2 foizi istamaydi.

Yosh kesimida koronavirus infeksiyasiga qarshi emlanishga tayyorlikning eng yuqori ko‘rsatkichi 45-54 yoshdagi fuqarolar orasida aniqlandi. Emlanish borasida bir qarorga kelmagan fuqarolarning eng yuqori darajasi 18 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan yoshlar orasida aniqlandi va 28,4 foizni tashkil qildi.

“Siz qancha vaqt ichida COVID-19ga qarshi emlanmoqchisiz?”, degan savolga javob berishda 37,1 foiz fuqaro kelayotgan haftada emlanishga tayyorligini bildirdi. 25,7 foiz ishtirokchi fikriga ko‘ra, ular bir oy ichida emlanishni boshlashlari mumkin. Har o‘ninchi respondent (11,3 foiz) poliklinikaga chaqirilgan taqdirda emlanishga tayyor ekanligini ta’kidladi. Fuqarolarning kichik foizi (1,6 foiz) emlanishni uzoqroq muddatga kechiktiradi. Har beshinchi respondent emlanishga tayyor bo‘ladigan vaqt haqidagi savolga javob berishga qiynaldi.

Tadqiqotning asosiy maqsadlaridan biri fuqarolarning emlanishdan bosh tortishi sabablarini aniqlashdan iborat.

Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, 35,9 foiz fuqaro vaksinaning ehtimoliy nojo‘ya ta’sirlari borasidagi xavotirlik va kuchli nojo‘ya reaksiyalarga duch kelmaslikni COVID-19ga qarshi emlanishni rad etishning asosiy sabablari sifatida aytishdi.

Telefon so‘rovining ko‘rsatishicha, 34,2 foiz fuqaro koronavirus infeksiyasiga qarshi emlanishga zarurat ko‘rmayapti va COVID-19ga chalinishi mumkinligiga ishonishmaydi. Ushbu toifadagi fuqarolarning fikriga ko‘ra, jahonda koronavirus infeksiyasi atrofida yuzaga kelgan vaziyat go‘yoki o‘ylab topilgan, uning xavfi judayam oshirib yuborilgan. Bundan tashqari, ushbu fuqarolar kasallik ularni chetlab o‘tishiga ishonadi.

Telefon so‘rovi davomida COVID-19ga qarshi emlanishga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lgan fuqarolarning 16 foizi vaksina koronavirusdan samarali himoya qilishiga shubhalanishini ta’kidladi. Chunki bugungi kundagi mavjud vaksinalar ularning xavfsizligini va samaradorligini tasdiqlashi mumkin bo‘lgan yetarlicha tadqiqot va klinik sinovlardan o‘tmagan.

8,6 foiz respondent emlanishni samarasiz, deb hisoblaydi, koronavirusga qarshi mavjud vaksinalar aholining kasalni yuqtirish xavfini kamaytirishi, hayoti va salomatligini himoya qilishi mumkinligiga ishonmaydi.

Umuman olganda, telefon orqali o‘tkazilgan so‘rov shuni ko‘rsatdiki, har ikkinchi tadqiqot ishtirokchisi emlanishga ishonadi, uni koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi samarali vosita, deb hisoblaydi. O‘zini va yaqinlarini xavfli virus bilan kasallanish xavfidan saqlash uchun COVID-19ga qarshi emlanishga tayyor.

Shu bilan birga, aholining bir qismi orasida mutlaqo asossiz, emlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi turli xil qo‘rquv va xavfsirashlar keng tarqalgan. So‘rov o‘tkazish vaqtida emlanish kerakmi yoki yo‘qligi borasida aniq pozitsiyaga ega bo‘lmagan guruh ham aniqlandi.

Olingan tadqiqot natijalari jamiyatda shakllangan emlanishga qarshi stereotiplarni bartaraf etish, aholining keng qatlamlariga mo‘ljallangan va mamlakatimizda qo‘llanilayotgan COVID-19ga qarshi vaksinalar, ular ta’minlaydigan himoya darajasi haqida tekshirilgan, ilmiy ma’lumotlarga asoslangan ishonchli ma’lumotni taqdim etishga qaratilgan axborot ishlarini faollashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

**“Ijtimoiy fikr” markazi ma’lumotlari asosida**
**O‘zA muxbiri**
**Ziyodulla JONIBEKOV**
**tayyorladi.**




Bu yil hur O‘zbekistonimiz o‘z mustaqilligining 30 yilligini keng nishonlamoqda. Shu fursatdan foydalanib, yurtdoshlarimizni ulug‘ ayyom bilan muborakbod etgan holda, barchangizga Vatanimiz ravnaqi yo‘lidagi fidokorona mehnatlaringizda omadlar tilab qolamiz!

# QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI JAMOASI



R

ПЯТЬ ИНИЦИАТИВ

# ЧИТАТЬ, ИГРАТЬ, IT ИЗУЧАТЬ



*Здесь в наушниках звучат аудиокниги и макомы, на стенах размещены плакаты с QR-кодами, отсканировав которые можно прочитать произведения отечественных писателей и поэтов, а доступ к бумажным и электронным изданиям открывает специальная ID-карта.*

*«Даже не верится, что это построили у нас, а не где-то за рубежом!» – примерно так реагирует каждый, кто побывал в новой молодежной библиотеке, созданной в Давлатабадском районе города Наманган.*

Трехэтажное здание в стиле хай-тек еще издали привлекает внимание и служит украшением города. С самого начала библиотека задумывалась не просто как хранилище книг, а как интеллектуальный и просветительский центр, построенный на основе мировых стандартов. Инициатива по ее созданию принадлежит главе государства.

Свои двери для читателей «обитель знаний» распахнула накануне Навруза. Лучшего подарка наманганцы и представить не могли! Переступаешь порог и попадаешь в совершенно особое пространство, где правят бал книги и IT. В фойе расположено место для регистрации и инфокиоск, где посетителям выдаются ID-карты. Это цифровой пропуск в мир новых знаний и технологий.

Библиотека занимает площадь около пяти тысяч квадратных метров и одновременно может принять 1200 человек. Здесь есть специальный подвал для хранения фонда и архив, куда книги доставляются с помощью лифта. Читателям доступны свыше ста тысяч экземпляров художественной, научной и учебной литературы. Десять тысяч из них привезены из России. Список изданий постоянно пополняется.

Особое внимание – юным книголюбам. Мальчишки и девчонки с удовольствием «хозяйничают» на детской площадке: листают красочные книги, играют, рисуют. Специальные полки, с которых удобно брать приглянувшиеся сборники сказок или энциклопедии, развивающие игры, мягкие кресла – детвора точно не заскучает. В это время их мамы и папы могут заглянуть в Bookcafe, книжный магазин, спокойно посидеть в читальном зале с томиком любимого автора.

– Конечно, не забыли мы и о людях с особыми нуждами, – отмечает директор библиотеки Дилноза Азизова. – Есть специальный зал для слабовидящих и посетителей с инвалидностью, издания на шрифте Брайля. На компьютерах установлена программа Jaws, предназначенная для читателей с ослабленным зрением.

Кстати, о компьютерах. Современная оргтехника – часть масштабного проекта «Цифровая библиотека», реализуемого при поддержке IT Park и Министерства по развитию ИКТ и коммуникаций. В виртуальной базе более трех миллионов электронных книг, в том числе в аудиоформате. Также организован учебный центр цифровых технологий – тринадцатый по счету, открытый в регионе. Молодежь здесь обучается программированию, веб-дизайну.

Житель Папского района 23-летний Норбек Юсуфжонов учится в Южнокорейском университете. В период каникул знакомит юношей и девушек с увлекательным миром IT.

– Раньше считалось: хочешь приобрести качественные знания – нужно ехать в столицу. Теперь достаточно дойти до библиотеки, – улыбается Норбек. – С каждым днем приходит все больше молодых людей. Наманганцы с интересом узнают о возможностях, которые открывает «Цифровая библиотека». Скоро благодаря ей появится доступ к фондам ведущих книгохранилищ мира.

А еще в новом просветительском центре можно проводить встречи и другие мероприятия: есть специальная площадка для обсуждений и комнаты для переговоров. Создана отдельная «зеленая зона» для работы молодых программистов.

– Подобные библиотеки строят в Финляндии, а теперь появляются и у нас, – поделился впечатлениями в своем Facebook-аккаунте директор Агентства по делам молодежи Алишер Саъдуллаев. – Место получилось особенно уютным и отлично подходящим для нетворкинга. Здесь можно проводить презентации книг, встречи с учеными или крупные IT-хакатоны. Уверен, молодежная библиотека станет любимым местом для жителей не только Намангана, но и всей республики.

Алина ЯГОДКИНА























# МАМА, СКАЗКУ!

## или дайте ребенку оставаться ребенком

ЖИЗНЬ С КНИГОЙ

***Девчонка в крупном супермаркете остановилась у красочной витрины с детскими книгами, окинула ее взглядом и встретилась глазами с ним... С мультяшным героем в виде голубой бейсболки с национальным рисунком «калампир».***

***«Ничего себе, – расцвела в улыбке юная покупательница. – Крутой бейсболенок. Мама, возьмем его? И домой, домой, скорее читать!»***

***Наша собеседница – лауреат премии «Тахсин-2021» Саида РАШИДОВА, автор «Истории Допки», одна из основательниц Клуба читающих мам (КЧМ). Разговор пойдет о том, что давным-давно получило статус «лучшего подарка», но сегодня переживает не лучшие времена, – о книге.***

**– Обилие всевозможных сообществ, объединений, кружков по интересам стало делом привычным, однако Клуб читающих мам уже привлекает названием. Как возникла идея его создания?**

– Благодаря Ташкентской международной школе, в которой проработала шесть лет (параллельно училась в Вестминстерском университете). Уже в первые полгода заметила: здесь все читают. Причем не ради оценок и похвалы, а потому что это классно. И самый естественный фактор, пробуждающий интерес у детей и учителей, – наличие хороших книг. Не заметить их невозможно, настолько они яркие и занимательные. Так и тянет пролистать, показать другим, пробежать хотя бы несколько страниц. Там все преподаватели читали вслух, даже старшеклассникам. Один из инструментов, применяемый каждый день. Можно связать с темой урока, придумать дополнительные задания или просто предложить учащимся вопросы для беседы.

Безумно хотелось тоже так делать, вот и решила найти свою аудиторию. И еще (только создала семью) планировала больше узнавать о материнстве. Не представляла, как можно успеть перелопатить такое количество литературы. Мечтала изучить по максимуму и стать этаким экспертом по теме. Однако знала, что я лентяйка, читаю медленно и одна не справлюсь. У кого-то могло возникнуть ложное мнение о бесконечно читающей Саиде: Нет, это лишь иллюзия. Понимая невыполнимость задачи, нашла выход: собрать народ для коллективного обсуждения. Формат взяла из фильма «Жизнь по Джейн Остин». Одна из подруг подала идею бросить клич в социальных сетях. Первой обсуждали книгу «Как говорить, чтобы дети слушали, и как слушать, чтобы дети говорили».

Чего только мы не читали почти за пять лет! Жанр, формат не имеют значения. В последнее время вообще ничего не читаю, а прихожу послушать. Это для меня как лекция.

**– Вы собрали мам, которые читали на самом деле, или кто-то влился в клуб ради любопытства?**

– По-разному. Есть истинные книголюбы, а есть такие, которые обращаются к литературе по настроению. На старте установили правило: пропускаешь три встречи – исключаем из клуба. В результате некоторые боялись приходить, не успев полностью ознакомиться с выбранным произведением. Затем заменили жесткое правило на более свободное «Мы рады всем. Приходите, когда захотите!». Потом стали открыто говорить: «Даже если вы ничего не читали, но вам интересно, приходите. Все на вашей совести. Хочешь прочитать до встречи – читай, хочешь после – пожалуйста, хочешь просто послушать – твой выбор». Сложные книги по психологии делили на главы. Осуждения и обвинения в лени у нас нет.

Вначале думала, что ведущей будет тема материнства, ухода за детьми, общения с ними. Сама в ожидании ребенка на полгода выпала из жизни клуба, потому что занимало то, что для многих было давно известно. Я читала одно, они – другое. Когда поняла, что отдаляюсь, возобновила общение, имея свой список книг и превратившись в заинтересованного слушателя.

В итоге жизнь показала: не стоит зацикливаться на одном направлении. В разнообразии больше плюсов.

**– Как составляется программа клуба?**

– Естественным образом, по желанию членов. Причем подготовить обсуждение может каждый. Традиционно проводим одну встречу в месяц для детей, для мам – чаще. Не всегда это дискуссии. Иногда приглашаем спикеров, иногда кто-то выступает как лектор, а мы все приходим послушать.

Оптимальное число участников – десять человек. Двадцать – уже перебор, учитывая, что мы обычно устраиваем интеллектуальные беседы в кафе.

**– Работа клуба совершенствуется со временем?**

– Я уже говорила, что сделали правила посещения более свободными. Одни и те же лица – хорошо, но хотели, чтобы наши ряды пополнялись Со временем организовала встречи для детей и поняла: в них моя отдушина, потому что в женских встречах больше выступаю как организатор, координатор, контролер качества. Правда, всегда анализирую, насколько мне понравился материал, вынесенный на обсуждение. Детские встречи полностью (программа, оргмоменты и прочее) на мне. Получаю от них огромное удовольствие.

Кроме того, открыли клуб на узбекском языке. Создали небольшую группу, где читали на английском. Планируем проводить заседания и в онлайн-формате.

**– Когда начали проявляться ваши писательские способности и что побудило к созданию «Истории Допки»?**

– На детские встречи я брала литературу в школьной библиотеке. Потом сыпались вопросы: «Как нам достать это произведение? Где вы его взяли? Как нам его полистать?» А я не могла отдать книгу в чужие руки: она не принадлежит мне.

Заказывать издания из-за рубежа не каждому под силу. Я раньше не понимала, что ниша нужной мне детской литературы в Узбекистане пуста. Когда стала искать, заметила: нет книг для малышей, отражающих современную жизнь, доступным языком рассказывающих о нашей республике. Нужно было что-то с этим делать. К тому моменту сюжет уже вырисовывался. Искала подарок своему коллеге-канадцу и остановилась на допке, которая отражала мою сущность «аралаш-куралаш»: чуть-чуть оттуда, чуть-чуть отсюда, смесь разных культур.

Сюжеты были, но не думала, что напишу сама. Судьба распорядилась. Мы с семьей должны были лететь на Иссык-Куль, а я потеряла паспорт. Так и осталась дома одна на семь дней, решив что-то сделать для себя. Стала искать издательство, иллюстраторов. Художникам высылала фотографии кепки, чтобы посмотреть, как ее очеловечат. Чем милее, смешнее, мультяшнее создавался образ, тем больше шансов было у претендента стать иллюстратором. Устроил вариант Эльвины Аганесян. Через месяц начала писать сказку. Опубликовала только через полтора года. Была пандемия, требовали времени многие организационные вопросы. Не думала, что зайдет так далеко. А сейчас в голове рождаются новые истории.

**– Свою увлекательную историю вы писали на трех языках. Были трудности при переводе?**

– Были. Первый вариант создавала на русском языке. Так как задумывала заняться преподаванием узбекского, решила и перевести сама. Несколько моментов заставили поломать голову. Обсуждала, чему отдать предпочтение: чисто узбекскому переводу или более точному слову по ситуации. Скажем, выражение «вау», которого в нашем языке нет, а хотелось бы оставить. Тем более что оно популярно в речи детей. Думала недели две и все-таки остановилась на узбекском «вох». Перевод оказался не таким простым делом, несмотря на мое трехъязычие. Вариант на английском дался значительно легче.

**– Ваш литературный дебют вызвал хороший резонанс. Как отзываются об «Истории Допки» юные книголюбы и их мамы?**

– На своей странице в Instagram сохраняю отзывы. Находят соответствующие тюбетейки у себя дома. Или картинки с их изображением. Нравится, что у ребят возникают ассоциации с героями. Черно-белую маргиланскую тюбетейку дружно называют трансформером, распознают золотошвейную, цветочную. Радует эта прочная связь с книгой. Второе – хотят их рисовать, раскрашивать. Часто я детям вместе с книгой даю раскраски. Некоторые присылают свои картинки. Больше всех в восторге мамы. Это они стоят за процессом чтения и делятся эмоциями семьи.

Отзывов много. Как правило, отмечают главное: произведение не только об узбекских национальных головных уборах, но и том, что каждый человек индивидуален, уникален, хорош сам по себе. В современном мире так много соревновательности, соперничества, что ребенок об этом забывает.

**– Кстати, откуда у вас любовь к чтению?**

– Она родилась не сразу. Читала мало. Когда в пятом классе переехала из Самарканда в Ташкент, у меня появилась строгая учительница по русскому языку, которая требовала самостоятельного знакомства с серьезными книгами. Я выбрала полегче – приключения Незнайки. На вопрос педагога, что сейчас читаю, не смогла сказать ни слова. Мне вручили фантастическую повесть «Человек-амфибия»... Благодаря учительнице открыла для себя мир литературы. Класс попался читающий. Всеобщая увлеченность подстегивала. Не хотела отставать.

Потом переключилась на английский. Тоже благодаря требовательному педагогу. А когда после двадцати заинтересовалась психологией, полностью погрузилась в специальную литературу, оставив художественную. Вопросы личностного роста перетянули. Даже когда открыли клуб, не ощущала тяги к художественным изданиям. Сейчас возвращаюсь к ним сквозь призму языка. Хочу пополнить свой узбекский словарный запас и берусь за то, мимо чего когда-то прошла. Например, «Унесенные ветром». Сколько восторженных отзывов о романе слышала, а меня они нисколько не трогали. Теперь нашла его на узбекском языке и готова восполнить пробел.

**– Сейчас ребенок с книгой – редкость. Как, на ваш взгляд, приобщать детей к этому полезному, развивающему занятию?**

– Больше всего мне нравится читать мальчикам и девочкам вслух. Это самый безобидный и простой способ приобщить к книге с раннего детства. Любимый источник, подтверждающий этот факт, – интернет-журнал «Папмамбук» Марины Аромштам. Она хорошо понимает детей, рекомендует им интересный контент, сама читает вслух на своем канале – словом, большой знаток в данной сфере. Эксперт по детской литературе подчеркивает: чтение – духовный процесс. Нельзя кого-то заставлять, принуждать. Для того чтобы сформировать его как норму жизни, требуется тонкая работа. Если в семье не интересуются книгами, привить ребенку любовь к ним очень тяжело. Дети нас зеркалят.

И еще о чтении вслух. Сначала увидела это у иностранцев. Используется повсеместно. Выбираются для малышей такие экземпляры, где много красивых иллюстраций. Слово «красивый» имеет особое значение. Вовсе не обязательно, что это рисунки, выполненные профессиональным художником. Они должны цеплять. Помогает и ощущение того, что в руках держишь мультик. Наличие иллюстраций, пожалуй, определяющее для дошкольного и младшего школьного возраста. Есть даже направление «читать картинки». У нас силен стереотип: элементами чтения воспринимаются слова и красочному оформлению не уделяется достаточно внимания. Распознавание букв приходит к ребенку позже. Первоначально он воспринимает мир преимущественно зрительно. Появились даже книги для новорожденных, годовалых детей из одних картинок, карточек. Из них в определенной последовательности создаются истории.

Рассматривая иллюстрации, ребенок тоже читает книгу, и это чрезвычайно важно. До 5–6 лет он должен научиться излагать нарисованное в словах. Развивает речь. Так что сначала нужно привыкнуть разглядывать, познавать, обсуждать. Причем не только красочно иллюстрированные книги – окружающий мир. Сейчас много изданий, которые отражают психологию малыша. Рассказывают о ситуациях, когда не хочется есть, идти в сад, слушать взрослых. И надо не просто подбирать обязательный список из Пушкина, Чуковского, Толстого, а ориентироваться по ребенку: чем он живет, что его волнует?



Марина Аромштам считает, что сыну или дочери надо читать вслух до тех пор, пока мама и дети не усядутся отдельно за чтение каждый со своей книгой. У каждого ребенка свой возраст этой «отдельности»: может наступить в 10 лет, а может и в 15. Пока потребность не сформировалась, актуально читать вслух с постепенным усложнением материала. Трудно найти ребенка, который бы отказался слушать сказку или другую занимательную историю. Если такое происходит, то или время выбрано неправильно, или книга не подходит.

Все проверила на старшей дочери. Реально работает. Стала скупать разные произведения на русском и английском языках. Дочка подходит к книжной полке и сама себе пересказывает знакомые истории, копируя наши интонации и эмоции. Все повторяет один в один. Причем мы можем и не находиться рядом: процесс запущен. Придумываем разные способы поощрения. В планах поход в магазин, где она сама впервые будет выбирать для себя книгу. Обычно все покупалось по моему вкусу.

Как бы ни менялось время, чтение будет занимать в нем свое место. Это зависит от среды, социальной мотивации. Мне кажется, в нашей стране самое интересное впереди. Нам еще предстоит пережить читательскую кульминацию, когда в Узбекистане это станет трендом и в корне изменится продукция для детей.

**– У вас есть любимое произведение для малышей, о котором вспоминаете в первую очередь, когда речь заходит о чтении вслух?**

– Ему бы присвоила первый номер. Это «Очень голодная гусеница» Эрика Карла на любом языке.

**– Что можете сказать о качестве детской национальной литературы?**

– Оставляет желать лучшего. Почему «Озорник» Гафура Гуляма вне времени? Он про то, каким ребенок может быть: шаловливым, непослушным, имеющим свое мнение. Большая часть книг традиционной тематики: воспитание, формирование положительных качеств. Личность ребенка стерта. Популярный подход не меняется с годами, а жизнь не стоит на месте. Даже сказки, построенные на контрастах черного и белого, добра и зла, потеряли былую актуальность. Ведь в жизни дети видят иное. Покупаются, как правило, раскраски, то, что идет с тематикой мультиков. Другие книги читаются только как выполнение заданий в «Почемучках». Опять-таки ради оценки, похвалы, но никак не в силу естественной потребности. Вот и получаем поколение, которое не соприкасается с мастерством слова.

Те, кого это искусство привлекает, в основном скупают зарубежные книги, где отношение к детской литературе поменялось.

У нас много детских поэтов, в стихах которых мало детского. Разве говорится в них о непоседливости, проблемах и заботах малышей? А детям нужно дать возможность чувствовать себя детьми. И в прозе перегруженность текста установками, каким нужно быть и как нужно поступать. Она больше для взрослых. А такого, чтобы маленькую сказку или стихотворение превратить в целую книгу, создав говорящие иллюстрации, у нас еще нет.

Не могу не затронуть эстетическую сторону. Подборка цветов, оформление зачастую поражают безвкусицей: аляпистые обложки с множеством деталей совсем не привлекают. Дизайн печатной продукции превратился в проблему.

**– Какими, по вашему мнению, должны быть книги для детей?**

– Детскими. И это главное. Мы говорим о возрасте до 10+. С красочными иллюстрациями на каждой странице. Здорово, когда используются детские рисунки со своеобразным почерком, понятным сверстникам. Они настолько просты и подкупают своей непосредственностью, что даже не нужен профессиональный художник.

Привлекательная (обязательно твердая!) обложка без ненужных наворотов, качественная бумага, минимум текста, крупный шрифт.

Поменьше морализаторства, нотаций, менторства. Мы можем сухо рассказать, как переходить дорогу, а можем преподнести жизненные правила в виде истории конкретного мальчика, который чудом не пострадал. Требовать мыть руки или предлагать простые истории с гигиеническим посылом.

Литературу для детей должны отличать креатив, умение мыслить языком ребенка, признавать его страхи и переживания. Детский писатель – это хороший психолог, тонко чувствующий душу того, о ком и для кого он пишет, позволяющий адресату быть самим собой, смело подпитывающий его любопытство, не боящийся выйти за рамки общепринятого. Те, кто поддерживает эти принципы, становятся любимчиками юных читателей.

**– Вы эффективно пропагандируете чтение среди взрослых и детей, обучаете языкам, являетесь волонтером. О Клубе читающих мам знают не только в столице. И вот премия Агентства по делам молодежи «Тахсин». Как восприняли такое признание своего труда?**

– Была польщена. Когда сообщили, что меня номинировали, тронуло. Сотрудничала с Союзом молодежи, продолжила сотрудничество с новой молодежной структурой. Называю агентство организацией действия и общения с народом. Работает масштабно, по всей стране. Довелось в рамках одного проекта побывать в Алмалыке. Убедилась, что юношам и девушкам подвластны все направления. Ездила в Сардобу, читала сказки детям из пострадавших семей и имела возможность оценить вклад нашей активной молодежи в ликвидацию последствий трагедии. Конечно, получить награду, за которой стоят такие люди, почетно.

**– Аплодисменты признания слышала и ваша готовившаяся появиться на свет доченька. Получали награду вместе. Хороший знак. Теперь малышка присутствует и на мамином интервью.**

– Думаю, она на многое меня вдохновит.

**Беседовала**
**Людмила ПОЛОНСКАЯ**







## КУЛЬТ СВЕТ

### Коллекция, которой нет равных

***Скоро в свет выйдет уникальный альбом, посвященный шедеврам искусства Узбекистана.***



В издание войдут фотографии артефактов текстильного, изобразительного, а также искусства керамики. Среди изображений как широко известные, так и малознакомые произведения живописи, графики и скульптуры из государственных музеев и частных коллекций, созданные за последние сто лет.

Каждый альбом состоит из трех масштабных тематических разделов, посвященных этапам развития искусства Узбекистана. Презентация состоится на V конгрессе Всемирного общества по изучению, сохранению и популяризации культурного наследия Узбекистана в сентябре 2021 года.

### Для детей и их родителей

***Республиканский центр духовности и просветительства совместно с обществом пропагандистов «Маърифат» готовит фотожурнал в рамках проекта «Зукко болажон!».***



Рассчитанный на ребят от трех до семи лет, проект направлен на реализацию задач, определенных в Концепции непрерывного духовного образования.

К подготовке фотожурнала привлечены квалифицированные психологи, педагоги и другие специалисты. Он нацелен на обучение мальчиков и девочек правилам безопасности в повседневной жизни, приобщение к духовным ценностям.

«Зукко болажон!» станет хорошим пособием для педагогов, работающих в дошкольных образовательных учреждениях, и родителей.

### Доброе наставление

***На цифровой платформе НТРК запущен круглосуточный научно-просветительский онлайн-телеканал «Hidoyat sari» («Наставление на путь истины»).***




Телеканал транслирует программы, широко освещающие и пропагандирующие исламскую культуру, наследие ученых, работы по благоустройству святынь. А также распространяет идеи сохранения религии, воспитания молодежи в духе патриотизма, уважения к национальным ценностям, представителям других национальностей и вероисповеданий.

В сетке вещания – встречи и круглые столы со специалистами религиозной сферы, где обсуждаются актуальные вопросы, в том числе касающиеся семьи, правил поведения и воспитания подрастающего поколения. Кроме того, в эфир выходят передачи и ролики, призывающие молодежь не попадать под влияние деструктивных идей и течений.

### Очарование узбекского романса

***В Ташкенте прошла презентация проекта по развитию узбекской классической музыки и возрождению узбекского романса.***




Идея создания коллекции записей принадлежит заслуженному артисту Узбекистана Женисбеку Пиязову. Подарочное издание оформлено в виде книги, в которую включены DVD- и CD-диски и QR-код к каждому романсу (это дает возможность доступа к произведениям на канале YouTube). Настоящим украшением обложки стали картины народного художника Узбекистана Акмаля Нура.

Над проектом трудилась целая команда, которая вела кропотливую работу несколько месяцев. Это лучшие звукорежиссеры, операторы, педагоги-консультанты, пианисты и дизайнеры, а также талантливые молодые оперные исполнители.

ТАКАЯ ДАТА!



# Левой? Правой?

***Попробуйте определить, что объединяет Александра Македонского, Цезаря, Наполеона, Жанну д'Арк, Рафаэля, Аристотеля, Ньютона, Эйнштейна, Микеланджело, Леонардо да Винчи, Пикассо. Что ни говори, а по роду занятий они существенно различаются. Зато все были левшами, что не помешало перечисленным мастерам кисти создавать гениальные полотна, а всем остальным добавило креативности.***

Традиционно считается, что «леворукие» личности одарены в разных сферах: кто в науке, кто в мастерстве слова, кто в бизнесе. Так это или не так, судить трудно. Ведь мы владеем лишь информацией о людях, снискавших всемирную известность, а сколько рядовых левшей ходят рядом, совершенно не привлекая к себе внимания.

Одно бесспорно: жить им сейчас намного легче, чем в стародавние времена, когда этот отличительный признак воспринимался как отметина нечистой силы. И всего-то они составляют до десяти процентов населения земного шара. К слову, левши достаточно часто получают производственные травмы, потому что оборудование изготовлено традиционным способом. Зато у них повышаются шансы на боксерском ринге за счет неожиданных мощных ударов левой.

Раньше их активно переучивали, выбирая далеко не самые щадящие методы, оскорбляя и унижая. К счастью, процесс «спора» с природой со временем поутих и левшей попросту оставили в покое. Хотя им иногда приходится отстаивать свое право на непохожесть.

Наргиза Исманова, главный специалист отдела по связям с общественностью и СМИ Ташкентского государственного юридического университета, – потомственная левша. Дедушка по материнской линии, мама, они с младшим братом. Дедушка о приключениях, в которые попадал благодаря активности левой руки, не рассказывал, зато мама вспоминала детские годы с обидой:

**Раньше их активно переучивали, выбирая далеко не самые щадящие методы, оскорбляя и унижая. К счастью, процесс «спора» с природой со временем поутих и левшей попросту оставили в покое.**

– Учительница меня сразу невзлюбила. Все дети как дети, а я карандаш и ручку не в той руке держу. Не могла она такой беспорядок в классе терпеть. Решила принять радикальные меры. Сначала попыталась договориться. Попробуй уговорить первоклассницу, когда ей эта особенность по наследству передалась! Чем дольше у меня не получалось, тем больше разгоралась злость в педагоге. И упрямой меня называли, и настырной, и избалованной врединой. Стала получать указкой по пальцам, с каждым разом сильнее. Не выдержала – сбежала. Дома, плача, заявила: «Больше в эту школу не вернусь!»

В другом учебном заведении продолжили переучивание, но в более мягкой форме. Стала писать правой рукой, но моральная травма осталась на всю жизнь...

«Левизна» Наргизы не принесла ей столько обид. Поначалу за дастарханом ее пытались воспитывать соседки, родственницы: «Грех-то какой! Левой рукой принимаешь пищу». Девочка видела, как мама еле сдерживается, чтобы не вспылить. Только гневные искорки в глазах выдают всколыхнувшиеся воспоминания детства. Назидания потихоньку утихли; сейчас уже подобных замечаний не делают.

Единственная проблема – часто приходится менять шариковые ручки. Ведь рука касается написанного текста и смазывает его. Поэтому к выбору главного инструмента девушка подходит особенно тщательно. С компьютером справляется спокойно, мышка с правой стороны не напрягает. И еще приходится носить часы и браслеты на правой руке.

Зато самое запоминающееся произведение, прочитанное в детстве, – «Левша» Н.Лескова. Одноклассники смотрели на нее с особым уважением, когда читали, как тульский умелец подковал блоху (по-иностранному «нимфозорию»). Охали, ахали: «Левой рукой!» – и оглядывались на Наргизу. Чем не торжество для шестиклассницы!

Международный день левшей приходится на 13 августа. Его не отмечают широко, но предлагают примерить на себя эту роль. От пробуждения до отхода ко сну попробовать все делать левой рукой. Справитесь или нет? Так и левши, когда их пытаются «выПРАВить».



Ольга **ВОЛОДИНА**




# JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI JAMOASI

**Barcha vatandoshlarimizni tobora yaqinlashib kelayotgan eng ulug‘ va eng aziz bayram — Mustaqilligimizning 30 yilligi bilan samimiy qutlaydi!**

**Xonadonlaringizdan tinchlik-xotirjamlik, osoyishtalik, baxt-saodat hech qachon arimasin.**

**Yurtimiz ravnaqi va xalqimiz turmush farovonligi yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar bardavom bo‘lsin!**

**Mustaqilligimiz abadiy bo‘lsin!**



®

*Oʻzbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligiga*

# YOSHLAR UCHUN MUNOSIB SHART-SHAROIT YARATISH – ASOSIY VAZIFAMIZ!



**Bahrom ABDULLAYEV**
**Urganch davlat universiteti rektori,**
**Xalq deputatlari Xorazm viloyat kengashi deputati**

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati tubdan isloh etilib, yosh avlodning huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirish yoʻlida qator maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Soha muayyan darajada rivojlandi, jumladan, yoshlar huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirishning oʻziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy tadbirlardagi ishtiroki orqali huquqiy-siyosiy madaniyatining shakllanishi, ularning huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirishda davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligiga zamin yaratuvchi huquqiy baza yaratildi.

Ayniqsa, yoshlarning chuqur bilim olishi, kasb-hunar oʻrganishi, oʻzlari tanlagan mutaxassisliklar boʻyicha oliy ta'lim muassasalarida tahsil olishi, iqtidorini keng namoyon qilishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Keyingi yillarda oliy ta'lim tizimida oʻquv-tarbiyaviy ishlar yanada takomillashtirilib, ilgʻor fan-texnika yutuqlari, innovatsion texnologiyalar, istiqbolli loyihalar hayotga keng tatbiq qilinmoqda.

Oʻzi tanlagan yoʻnalishi boʻyicha zamon talablariga javob bera oladigan, respublikaning ilm-fan, madaniyat, iqtisod, ijtimoiy sohalarini rivojlantirishda oʻz hissasini qoʻshadigan, mustaqil fikrli, yuksak ma'naviyatga ega yuqori salohiyatli, malakali, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash oliy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy maqsad hisoblanadi.

2016-yilda qonun bilan mustahkamlab qoʻyilgan huquqlar oʻtgan davrda respublikamizda yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga koʻtardi.

"Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuygʻusi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda", deya ta'kidlaydi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev.

Bugungi kunda Oʻzbekiston xalqi yangi demokratik jamiyat qurmoqda, uni rivojlantirishda ma'naviyat muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz oldida turgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy vazifalarni hal etishda ta'lim, ma'naviyatni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Urganch davlat universitetida yuksak ma'naviyatli, qat'iy hayotiy pozitsiyaga va keng dunyoqarashga ega boʻlgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, ularda mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish, yoshlar oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini keng targʻib qilish, ularning kitob oʻqishga qiziqishini, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish madaniyatini yuksaltirishga katta e'tibor qaratilgan. Talabalarning darsdan keyingi vaqtini mazmunli oʻtkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu jarayonda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat boʻlimi, Oʻzbekiston yoshlar ittifoqi viloyat kengashi, viloyat ichki ishlar boshqarmasi, viloyat mahalla va oilani qoʻllab-quvvatlash boshqarmasi, Yozuvchilar uyushmasi va qator tashkilotlar bilan hamkorlikda ma'naviy-ma'rifiy mavzularda tadbirlar tashkil etilgan. 5 ta muhim tashabbus asosida yoshlarni madaniyat va san'at, sport, kompyuter texnologiyalari, kitobxonlikka jalb etish yuzasidan qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 1-tashabbus doirasida universitetning barcha fakultetlarida "Talabalar teatr studiyasi", "Quvnoqlar va zukkolar" klublari, "Sayqal" havaskorlik ansambli guruhi faoliyati yoʻlga qoʻyilgan. Universitetda "Cholgʻu ijrochiligi", "Dutorchi qizlar", "Rangtasvir", "Qalamtasvir", "Dizayn", "Qoʻgʻirchoq teatri" toʻgaraklari muntazam ishlab turgan boʻlsa, 2-tashabbus boʻyicha sport toʻgaraklari doimiy faoliyat olib bormoqda. Buning uchun shart-sharoitlar yaratilgan. Gandbol, voleybol, basketbol, milliy kurash, dzyudo, belbogʻli kurash, badminton, stol tennisi, shaxmat-shashka, futbol, yengil atletika turlariga talabalarning qiziqishi katta. Talabalar orasida sportni ommalashtirish maqsadida har oyda sport turlari boʻyicha musobaqalar oʻtkazib kelinmoqda. "Yoshlar – sport elchisi" shiori ostida Jismoniy madaniyat fakulteti talabalari darsdan boʻsh vaqtlarida oʻzlarining doimiy yashash joylaridagi maktab va mahallalarda sport musobaqalarini tashkil qilmoqda.

Mamlakatda madaniy xizmat koʻrsatish sifatini yanada yaxshilash, yoshlarning mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ijodiy-intellektual salohiyatini roʻyobga chiqarish uchun sharoitlar yaratish, ularni kompyuter texnologiyalari, dasturlash asoslari va robototexnika, kompyuter sportiga (kibersportga) keng jalb etish boʻyicha keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada 3-tashabbus boʻyicha aholi va yoshlar oʻrtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan bir qator tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Talabalarning internetdan foydalanishlari uchun universitet hududida WI-FI tizimi uzluksiz ishlab turibdi. Talabalar turar joyida kompyuter texnologiyalari boʻyicha toʻgarak mashgʻulotlari yoʻlga qoʻyilgan. Universitetning "Shaxmat" klubi talabalari kompyuter va internet orqali onlayn tarzda musobaqalarni oʻtkazib kelmoqda. "Matematika", "Informatika va AT" ta'lim yoʻnalishlari talabalari uchun xalqaro olimpiada misollarini onlayn ishlash uchun barcha sharoitlar yaratilgan.



Talabalarimiz kitob va uning zamonaviy elektron shakllaridan foydalanishi uchun elektron kutubxona tizimi yoʻlga qoʻyilgan. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish uchun 4-tashabbus doirasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Reja asosida taniqli shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar boʻlib oʻtmoqda. Bu talabalarning badiiy ijod namunalari bilan yanada chuqurroq tanishishiga, badiiy asarlar oʻqishiga muhabbat uygʻotishda yordam bermoqda. Har oyda oʻzbek adabiyotining yirik namoyandalari ijodiga bagʻishlangan "She'riyat shohsupasi", "Navoiyxon talaba", "Notiqlik san'ati", "Kitobxon talaba" koʻrik-tanlovlari oʻtkazib kelinmoqda.

Urganch davlat universitetining talabalar turar joylarida "Orasta qizlar" tikuvchilik, kashtachilik va boshqa milliy hunarmandchilik kurslari tashkil etilgan boʻlib, bu 5-tashabbus, ya'ni xotin-qizlarni ish bilan ta'minlashni koʻzda tutadi.

Yoshlarning boʻsh vaqtlarini mazmunli oʻtkazish maqsadida universitetda doimiy ravishda "Zakovat" intellektual klubi oʻyinlari, "Dekan kubogi", "Rektor kubogi" hamda "Universitet birinchiligi" turnirlari, turli bayramlar munosabati bilan musobaqalar oʻtkazilmoqda.

Shu oʻrinda ta'kidlash joizki, soʻnggi uch yil mobaynida Urganch davlat universitetida xorijlik talabalar soni oshib, 1167 nafarga yetdi. Ularning 1159 nafari Turkmaniston, 1 nafari Qirgʻiziston, 7 nafari esa Rossiya fuqarosi hisoblanadi. Ularning chuqur bilim olishi, yashashlari uchun barcha qulayliklar yaratilgan. Xorijlik talaba-yoshlarning talabalar turar joyida yashashi uchun barcha qulayliklarga ega xonalar ajratilib berildi. Bugungi kunda yotoqxonada talabalarning boʻsh vaqtini mazmunli tashkil qilish, ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka oʻqitishni tashkil qilish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, gʻoyalari va loyihalarini amalga oshirishga koʻmaklashish, jumladan, biznes-rejalar ishlab chiqish, maslahat, yuridik, buxgalteriya va boshqa xizmat turlarini koʻrsatish, forumlar, master-klasslar va seminarlar tashkil etishga xizmat qiladigan "Kovorking markazi" tashkil etilgan.

Talabalar Kengashi xonasi – bu xona talaba-yoshlarning boʻsh vaqtini mazmunli tashkil qilish, 5 ta muhim tashabbus doirasida loyiha va tadbirlarni amalga oshirish uchun talabalar muloqot qilishi, tajriba almashishi uchun ajratilgan. Bu yerda muhtaram Prezidentimizning 2020-yil dekabr oyida viloyatimizga tashrifi chogʻida yoshlar tomonidan bildirilgan taklif asosida Xorazm tarixini oʻrganish boʻyicha ham ilmiy izlanishlar amalga oshirish belgilangan.

Arxitektura va dizayn xonasi – bu xonada talaba yoshlar arxitektura sohasida bilimlarini yanada boyitish, amaliy ishlanmalar va yangi dizayn namunalarini yaratish hamda kompyuter grafikasi bilan shugʻullanadi.

Konferensiya zali – bu xona umumiy majlislar, ilmiy va ijodiy anjumanlar tashkil etishga moʻljallangan. Shu bilan bir qatorda xorijiy tajribadan foydalanish, video anjumanlar tashkil qilish ham koʻzda tutilgan.

Kutubxona – bu yerda 5 ta muhim tashabbus doirasida kitobxonlikni rivojlantirish, talaba yoshlar boʻsh vaqtida oʻz ustida ishlashi va bilimini oshirishi koʻzda tutilgan.

"Start up"lar markazi – bu xonada yoshlar kompyuter grafikasi, yangi texnika va texnologiyalardan foydalanish koʻnikmalarini oshiradi, dasturlash sohalarida ish olib boriladi.

Loyihalar fabrikasi – bu xona tadbirkorlikka qiziquvchi talabalarni tadbirkorlikka oʻqitish uchun tashkil etilgan. Viloyat yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish markazi bilan hamkorlikda bu yerda yoshlarga tadbirkorlikni rivojlantirish, biznes gʻoyalarini amalga oshirish boʻyicha oʻquv kurslari tashkil etiladi.

Amaliy didaktik ishlar xonasi – bu yerda talabalarning qoʻl mehnati namunalarini yaratish, dars jarayonlarida egallagan bilimlarini amaliyotda sinab koʻrishlari uchun ajratilgan.

Tikuvchilik – bu xona talaba-qizlarga darsdan boʻsh vaqtlarida kasb-hunar sirlarini oʻrganish uchun tashkil etilgan. Bu yerda 20 nafardan ziyod qizlar kasb-hunar oʻrganmoqda.

Zakovat xonasi – bu xona yoshlar oʻrtasida intellektual oʻyinlarni rivojlantirish, "Zakovat" oʻyinlarini tashkil etishga moʻljallangan. 4-tashabbus doirasida, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida, intellektual loyihalar va kitobxonlik toʻgaraklari faoliyati yoʻlga qoʻyilgan.

Shuningdek, talabalar turar joyida yashovchi xorijlik talabalar uchun sport xonalari mavjud boʻlib, ularda stol oʻyinlari (tennis, shaxmat, shashka), qoʻl kuchlanish anjomlari (turli giryalar, trenajor anjomlari), yotoqxona qoshida fitnes klub faoliyat yuritmoqda. Futbol, voleybol, mini futbol, qoʻl toʻpi maydonchalari yoshlar ixtiyorida.

Karantin davrida universitetning aksariyat xorijlik talabalari talabalar turar joyida zarur xavfsizlik choralari koʻrilgan tartibda joylashtirildi. Shuningdek, qattiq karantin davomida talabalarga universitet tomonidan toʻqqiz xil turdagi oziq-ovqat mahsulotlari hamda kerakli dori-darmonlar bepul yetkazib turildi. Talabalar tinchligi va sogʻligʻidan xabardor boʻlib turish maqsadida navbatchilik tashkil etilgan.

Talabalar boʻsh vaqtlarini mazmunli oʻtkazish maqsadida karantin qoidalariga rioya qilgan holda sport oʻyinlari, Oʻzbekiston va Turkmaniston milliy bayramlariga atab tadbirlar, universitet rahbariyati bilan uchrashuvlar oʻtkazib kelinmoqda.

Pandemiya davrida Xorazm viloyati hokimi F. Ermanov universitetda boʻlib, xorijlik talabalar holidan xabar oldi, talabalar turar joyida yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Urganch davlat universiteti talabalari fan olimpiadalarida muntazam ravishda faol qatnashib kelmoqda. Jumladan, 2020-yilda fan olimpiadasining respublika bosqichlarida 39 nafar talaba mutaxassislik va umumkasbiy fanlar boʻyicha gʻolib boʻldi. 2019-2020-oʻquv yilida 10 nafar talaba Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi hamda boshqa nomdor stipendiyalar sovrindori boʻldi.




**Aziz Vatandoshlar!**

**Sizlarni mamlakatimiz mustaqilligining 30 yilligi bilan samimiy muborakbod etamiz.**

**Mustaqilligimiz abadiy, tinchligimiz barqaror bo'lsin!**

# URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI JAMOASI



R



# VATANNI ULUG'LAGANNI XALQ ARDOQLAYDI

Sportchilarimizni olis Tokiodan olib kelayotgan samolyotning muazzam poytaxt aeroportiga qo'nishiga 15 daqiqacha vaqt bor. Guldastalar ko'targan yurtdoshlarimizning quvonchi cheksiz. Ayniqsa, "Tokio-2020" o'yinlarida O'zbekiston bayrog'ini sarbaland etgan sportchilarimiz – Bahodir Jalolov, Ulug'bek Rashitov, Akbarjon Jo'rayev, Davlat Bobonov, Bekzod Abdurahmonovning yaqinlari behad xursand.

Soat millari 21:00 ni ko'rsatdi. G'olib sportchilarimizni Tokiodan olib kelgan maxsus avialayner Toshkentga qo'ngani e'lon qilindi. Dillar shodlikdan hapqiradi. Tokio sport maydonlarida yurtni sharaflagan sportchilarimiz davlatimiz bayrog'ini baland ko'targan holda ona Vatan zaminiga qadam qo'yadi. Karnay-surnay sadolari yangradi. Tokio olimpiadasi qahramonlariga gullar taqdim etildi...




Toshkent aeroportining keng maydonida tashkillashtirilgan marosimda so'zga chiqqan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi T. Norboyeva, O'zbekiston xalq shoiri M.Toir, O'zbekiston xalq artisti Y. Sa'diyev, 32-olimpiya o'yinlari g'olib va sovrindorlari, ularning onalari yosh avlodni intellektual salohiyatli insonlar qilib kamolga yetkazish, iqtidorini namoyon etishi uchun davlatimiz tomonidan yaratilgan shart-sharoitlar natijasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, xususan, dunyodagi murakkab epidemiologik vaziyatga qaramasdan Tokio olimpiadasida sportchilarimizning matonat ko'rsatganliklarini alohida ta'kidlashdi.

– Shodligimning chek-chegarasi yo'q. Barcha-barchasi uchun katta rahmat, – deydi Olimpiya o'yinlari g'olibi Bahodir Jalolov. – Davlatimiz, shaxsan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan biz, sportchilarga ko'rsatilgan g'amxo'rlik, alohida e'tibor, yaratib berilgan shart-sharoitlar natijasida ushbu g'alabaga erishdik. Mening oltin medalim Mustaqilligimizning 30 yilligiga sovg'amdir.

– Tokio olimpiadasini katta hayajon bilan kuzatib bordim, – deydi taekvondo bo'yicha olimpiya chempioni Ulug'bek Rashitovning onasi Oksana Rashitova. – Juda xursandman. Har bir ona o'z jigarbandining Vatani uchun kurashishini, g'olib chiqishini, bayrog'i ko'tarilishini, madhiyasi yangrashini istaydi. Ulug'bek ishonchimizni oqladi. Uni g'alaba qozonishi uchun qo'llab-quvvatlagan murabbiylariga rahmat. Sportchilarimizning shug'ullanishi uchun yaratilgan barcha sharoit, hattoki, biz, ota-onalarga ko'rsatilgan moddiy va ma'naviy e'tibor uchun davlatimizdan cheksiz minnatdorman.

"Tokio-2020" o'yinlarida jasorat ko'rsatgan sportchilar, murabbiylar, mutaxassislar va ularning yaqinlari O'zbekiston bayroqlari bilan bezatilgan avtobuslarda poytaxtimizning Bobur, Nukus, Oybek, Sh.Rashidov, I.Karimov nomidagi ko'chalari va Amir Temur xiyoboni bo'ylab ketma-ket yo'lga chiqishdi. 32-olimp maydonida Vatan sha'nini ulug'laganlarni xalqimiz, ming-minglab yosh sportchilar yo'l chetida turnaqator bo'lib qarshilashdi, qutlashdi.

O'zbekiston sport tarixida 19 yoshli sportchimiz Ulug'bek Rashitov Tokio olimpiadasida mamlakatimizga oltin medal taqdim etgan ilk sportchiga aylandi. Uning yorqin g'alabasi tufayli jahon sport sahnasida madhiyamiz yangradi.

Og'ir atletikachimiz Akbarjon Jo'rayev "Tokio-2020" Olimpiya o'yinlarida O'zbekistonga ikkinchi oltin medalni keltirdi. U 109 kilogramm vazn toifasidagi sportchilar bahsida dast ko'tarishda 193 kilogramm, siltab ko'tarishda 237 kilogramm shtanga ko'tarib, umumiy hisobda 430 kilogramm natijani qayd etib, "Tokio-2020" Olimpiya o'yinlarining oltin medaliga sazovor bo'ldi.

Dzyudochimiz Davlat Bobonov va erkin kurashchimiz Bekzod Abdurahmonovning olimpiya o'yinlaridagi shiddatli va murakkab kurashlar natijasida bronza medali sohiblari bo'lishi va nihoyat alpomishlar avlodi Bahodir Jalolov "Tokio-2020"ning so'nggi kunida 32-olimpiya o'yinlarining oltin medalini qo'lga kiritishi xalqimiz g'ururini yuksaltiribgina qolmay, barchamizda bir maqsad – O'zbekistonning ertangi kelajagi, yangi g'alabalari yo'lida birlashish, jipslashish tamoyilini qalbimizga jo eta oldi.

Milliy Olimpiya qo'mitasida 32-olimpiya o'yinlarida zafar quchgan sportchilarimizni taqdirlash marosimi o'tkazildi. Tokio sport maydonlarida medallarga musharraf bo'lgan har bir sportchimizga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sovg'alari – yengil avtomashinalar va uy-joylarning kalitlari tantanali ravishda topshirildi.

Muzaffar sportchilarimizni kutib olish va taqdirlash marosimlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A. Abduvoxitov, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A. Aripov ishtirok etdi.

**To'lqin RO'ZIYEV,**
**O'zA**





Temur MAMADAMINOV (O'zA) olgan suratlar.

YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана

MUASSIS:
O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI MARKAZIY KENGASHI

BOSH MUHARRIR:
Hamza ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

MAS'UL KOTIB:
Yelena KALININA
NAVBATCHI MUHARRIR:
Iqbol PARDAYEVA
MUSAHHIH:
Shahribonu RAHMATOVA
DIZAYNER:
Zafar RO'ZIYEV

Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

TAHRIRIYAT MANZILI:
100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32.

Telefonlar:
(71) 233-22-16.
(71) 236-79-95.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi.
Hajmi – 3 bosma taboq.
**Korxona manzili:** Buyuk Turon ko'chasi, 41.
**Indekslar: 203, 3203**
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma G-855
Adadi – 726
**Bosishga topshirish vaqti – 21.00**
**Topshirildi – 20.00**

1 2 3 4 5 6